

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning xorij tajribasi va undan O‘zbekiston mintaqalarida foydalanish imkoniyatlari

Aminov Fazlitdin Baxadirovich

Зарубежный опыт перехода к «зелёной» экономике и возможности его применения в регионах Узбекистана

Аминов Фазлитдин Бахадирович

Foreign experience of transition to a “green” economy and possibilities of its application in the regions of Uzbekistan

Aminov Fazlitdin Bakhadirovich

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, O‘zbekistonning janubiy mintaqalari misolida ushbu tajribalarni mahalliy sharoitda qo‘llash imkoniyatlari baholangan. Jahon tajribasi asosida O‘zbekiston uchun samarali bo‘lgan yondashuvlar va tamoyillar taklif etiladi.
- **Kalit so‘zlar:** “yashil” iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiyalar, mintaqaviy rivojlanish, xorij tajribasi.
- **Аннотация.** В статье анализируются стратегии перехода к «зеленой» экономике на примере развитых и развивающихся стран. Кроме того, на примере южных регионов Узбекистана были оценены возможности применения данного опыта в местных условиях. На основе мирового опыта предложены эффективные подходы и принципы для Узбекистана.
- **Ключевые слова:** «зеленая» экономика, устойчивое развитие, экологические инновации, региональное развитие, зарубежный опыт.
- **Abstract.** The article analyzes strategies for transition to a “green” economy using developed and developing countries as examples. In addition, the southern regions of Uzbekistan were used as an example to assess the possibilities of applying this experience in local conditions. Based on global are proposed experience, effective approaches and principles for Uzbekistan.
- **Key words:** green economy, sustainable development, environmental innovation, regional development, foreign experience.

KIRISH

XXI asrda umumiy taraqqiyot yo'lini aniqlab olish, barcha xalqlarning manfaatlariga birday xizmat qiladigan maqsadlarni belgilash va unga intilishga kuchli ehtiyoj paydo bo'ldi. Shundan kelib chiqib, BMT, dunyo mamlakatlari, ularning parlamentlari va fuqarolik jamiyati institutlari, biznes hamjamiyatlari o'rtasidagi uzoq davom etgan "global maslahatlashuvlar" natijasida barqaror rivojlanish yo'li – bashariyat uchun yagona to'g'ri yo'l, degan umumiy xulosaga kelinib, uning ustuvor mezonlari belgilab olindi¹.

Jahonda milliy iqtisodiyotlarni barqaror taraqqiyot tendensiyalari asosida rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyot muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy omil sifatida ko'rilmogda. Iqtisodiy rivojlanishning yangi shakli sifatida yashil iqtisodiyot mamlakatlar va ularning turli mintaqalarining barqaror rivojlanishida, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishda, resurslardan tejankor va samarali foydalanishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda, turdosh tarmoqlar taraqqiyotida yuqori daromad olishga imkoniyat yaratmoqda.

Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi [1].

"Yashil" iqtisodiyot – bu atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi iqtisodiy modeldir. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot "inson farovonligi va ijtimoiy adolatni oshiradigan, ekologik xatar va resurs tanqisligini sezilarli kamaytiradigan iqtisodiyotdir" [2].

Bugungi global muammolar, jumladan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, suv resurslarining tanqisligi va ifloslanish darajasining oshishi "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bilan ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish masalasi mintaqaviy darajada dolzarb bo'lib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Yashil" iqtisodiyot va uning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri bugungi kunda ko'plab xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda.

Nicholas Stern tomonidan ishlab chiqilgan "Stern Review on the Economics of Climate Change" asari esa iqlim o'zgarishi va iqtisodiy siyosat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda

tahlil qilib beradi. Unda yashil texnologiyalarga investitsiyalar orqali uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlik oshirilishi ta'kidlangan [3].

Kudinova G.E. tomonidan "yashil" iqtisodiyot vositalari va "yashil" sektorning ayrim mamlakatlar taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinib, tabiatning insoniyat rivojlanishi davrida to'plangan ekologik muammolarni hal etish hamda sivilizatsiya rivojlanishining yangi modeliga o'tish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, inson farovonligini oshirish va atrof-muhitga antropogen yukni kamaytirish imkonini berishi tahlil qilingan [4].

X.M. Abdurahmonov va I.M. Jalilov tomonidan tayyorlangan "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish" nomli monografiyada O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tishning zarurati, asosiy bosqichlari va mahalliy resurslardan foydalanish yo'llari chuqur tahlil etilgan [5] [6].

A.V.Vahobov tomonidan xalqaro va mamlakanimiz miqyosida "yashil" iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, bugungi holati va kelajagi chuqur tahlil etilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy resurslarning cheklanganligi sharoitida "yashil" iqtisodiyotga o'tish zaruriyati asoslangan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan "yashil" iqtisodiyotga o'tish tamoyillari va amalga oshirish dastaklari qiyosiy tahlil etilgan. "Yashil" iqtisodiyotning axborot resurslari va nazariy-tahliliy, statistik manbalaridan foydalanilgan. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, sinergetik tahlil, fanlararo yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ayniqsa, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil uslubidan, xorijiy davlatlarning tajribasi tahlilida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyalashishi kuchayib borishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi bilan birga atrof-muhitga jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan salbiy ta'sirlar ortib boraveradi.

Hozirgi kunda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolar, ekologiya bilan bog'liq muammolarning muhim, hal qiluvchi jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Agarda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish, ularning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun hozirda aniq va maqsadli harakatlarni amalga oshirib, ularning ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'luvchi choralarni ko'rmasa, bundan keyin kechga qoldirilgan har

bir jarayon qaytarib bo'lmaz oqibatlariga olib keladi. Ya'ni qisqa qilib aytganda, hozir insoniyat ekologik muammolarni hal etishning burilish nuqtasida turibdi, ushbu nuqtadan keyin faoliyat keyinchalik o'zgartirib bo'lmaz oqibatlariga olib keladi, agar hozirdan aniq maqsadlar sari harakat qilinsa, unda ushbu yo'nalishda qandaydir ijobiy natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

Hozirga qadar amal qilib kelgan iqtisodiy rivojlanish modellari resursta va mehnat talab ishlab chiqarishga asoslangan bo'lganligi bois atrof-muhitga, tabiatga katta zarar yetkazib kelindi, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlardan ko'rilayotgan ijtimoiy samara tabiatga yetkazilgan zarar oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy zarardan pastligi bilan ajralib turgan.

Mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish ekologik xavf-xatar nuqtayi nazaridan minimallashtirmagan edi. Covid-19 pandemiyasi hozirgi zamon iqtisodiy modellari jahon iqtisodiyoti oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yecha olmasligini ko'rsatdi. Shu sababdan zamonaviy iqtisodiy muammolarni yechishda yashil iqtisodiyot modeli asosiy omil bo'lib sanaladi. Dunyoning ko'plab davlatlari buni tushinib yetgan holda iqtisodiyotini ekologiyalashtirishga o'tishmoqda.

O'zbekistonda ham ekologik muammolar o'zining salbiy ta'sirlarini iqtisodiyotning turli tarmoqlari samaradorligida, aholining salomatligi ko'rsatkichlarida, hududlarning rivojlanish darajalarida namoyon qilib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechishda, ta'sirini kamaytirishda mintaqalar iqtisodiyotini, ishlab chiqarishini ekologiyalashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotini yashil iqtisodiyot talabarlari nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish, rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda qo'llash bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz, dolzarb masalalaridan

sanaladi. Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlash, cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishda va energiya samaradorligini oshirishda "yashil iqtisodiyot"ning rivojlanishi yetakchi o'rinda egallab bormoqda. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'lga o'tkazishda "yashil iqtisodiyot"ning shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari va uni amal qilishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Xorij tajribasi: rivojlangan mamlakatlar yondashuvlari
Germaniya "yashil" iqtisodiyotga o'tishda sanoatni ekologik jihatdan modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga keng o'tish strategiyasini tanladi. "Energiewende" dasturi orqali 2022-yilga kelib atom energetikasi-dan butunlay voz kechib, quyosh va shamol energetikasiga asoslandi [8].

Janubiy Koreya "Green New Deal" dasturi doirasida yashil infratuzilma, ekologik transport va past uglerodli texnologiyalarni joriy etdi. Ushbu dastur yordamida 2009–2013 yillarda iqtisodiyotga \$38 milliard sarmoya yo'naltirildi [9].

Xitoyda yashil iqtisodiyot davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Ekologik tsivilizatsiya" konsepsiyasi asosida sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida ekologik texnologiyalar joriy etilib, "yashil shaharlar" konsepsiyasi amalga oshirilmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi

Hindiston qishloq hududlarida bioenergiya, quyosh panel-lari va ekologik toza suv texnologiyalarini tatbiq etish orqali yashil iqtisodiyot elementlarini rivojlantirmoqda. 2021-yilda "National Hydrogen Energy Mission" dasturi e'lon qilindi [10]. Qozog'iston "2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" asosida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va suv resurslarini tejashni maqsad qilgan. 2020-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 3% ga yetkazildi [11].

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyot siyosati [12]

MAMLAKAT	ASOSIY YO'NALISHLAR	NATIJARAR
Germaniya	Shamol va quyosh energetikasi, uglerodsiz sanoat	Elektr energiyasining 45% qayta tiklanuvchi manbalardan
Janubiy Koreya	"Yashil" infratuzilma, elektromobillar	CO ₂ chiqindilari 12% kamaydi
Xitoy	"Yashil shaharlar", ekologik sanoat zonalari	80 dan ortiq yashil shahar loyihalari
Hindiston	Bioenergiya, quyosh panellari	45 million uyda quyosh panellari o'rnatilgan
Qozog'iston	Suvni tejash, chiqindi boshqaruvi	Qayta ishlangan chiqindi 17% ga yetdi

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda iqtisodiyotni ekologik barqarorlik asosida rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatda "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi 2020-2030 yillar uchun mo'ljallangan Milliy strategiya doirasida shakllanmoqda. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda tajribasini tahlil qilish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali hududiy darajadagi siyosatni takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

1. Quyosh va shamol energetikasi – Germaniya va Hindiston tajribasi

O'zbekiston, ayniqsa uning janubiy hududlari (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari), yiliga 300 kundan ortiq quyoshli kunlar bilan ajralib turadi. Germaniyada "Energiewende" dasturi asosida amalga oshirilgan texnologik o'zgarishlar – quyosh panellari va shamol turbinalari joriy etilishi – O'zbekiston uchun ham dolzarb. Shu kabi, Hindiston tajribasi bo'yicha, qishloq joylarda kichik hajmli quyosh tizimlari orqali energiya ta'minoti samaradorligini oshirish mumkin.

2. "Yashil shaharlar" konsepsiyasi – Xitoy tajribasini mahalliyashtirish

Xitoyda "ekologik tsivilizatsiya" kontsepsiyasi asosida joriy etilgan "yashil shaharlar" modeli O'zbekistonda, xususan, yangi qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan shaharlar va tuman markazlarida tatbiq etilishi mumkin. Bu

uchun ekologik standartlar, yashil inshootlar, energiya tejankor binolar, ommaviy ekologik transport tizimlarini rivojlantirish zarur.

3. Ekologik texnoparklar va innovatsion klasterlar – Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreyaning "Green New Deal" dasturi doirasida yaratilgan "yashil texnoparklar" konsepsiyasi O'zbekiston sanoat zonalari va erkin iqtisodiy hududlarida ekologik toza ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejashga ixtisoslashgan klasterlar tashkil qilish istiqbolidir.

4. Suv resurslarini boshqarish – Qozog'iston modeli
Qozog'istonning suvni tejash, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va chiqindi suvlarni qayta ishlash borasidagi tajribasi O'zbekistonning suv tanqisligi mavjud bo'lgan hududlarida qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi uchun asosiy suv manbalariga ega janubiy viloyatlar bu borada muhim eksperimental hudud sifatida qaralishi mumkin.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish
Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, "yashil" iqtisodiyotga o'tish nafaqat texnologik yangiliklar, balki iqtisodiy rag'batlantirish, soliqlarni moslashtirish, ekologik ta'lim va aholining ongini o'zgartirish kabi tizimli yondashuvlarni talab qiladi. O'zbekistonda "yashil" tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan grantlar, kreditlar va imtiyozli soliq siyosatini kengaytirish bu sohadagi harakatlarni tezlashtiradi.

2-jadval

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ayrim xorijiy davlatlardagi tajribasi va O'zbekiston mintaqalari uchun foydalanish imkoniyatlari

DAVLAT	ASOSIY YO'NALISHLAR	FOYDALI JIHATLAR	O'ZBEKISTON UCHUN FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Germaniya [13]	Qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi	Mahalliy energiya kooperatsiyalari, "Energiewende" dasturi	Qayta tiklanadigan energiya bo'yicha hududiy dasturlar joriy etish
Janubiy Koreya [14]	Yashil texnologiyalar, "Yashil o'sish" modeli	Barqaror iqtisodiy o'sishni ekologik rivojlanish bilan uyg'unlashtirish	Innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, Yashil fond tashkil etish
Xitoy [15]	Sanoatni yashillashtirish, chiqindilarni qayta ishlash	Yashil sanoat zonalari, davlat siyosatining qat'iyiligi	Sanoat hududlarida ekologik standartlarni kuchaytirish
Daniya [16]	Shamol energetikasi, toza energiya ishlab chiqarish	Shamol energiyasi yetakchiligi, energiya eksporti	Qoraqalpog'iston va Sirdaryo viloyatlarida shamol salohiyatini rivojlantirish
Niderlandiya [17]	Atrof-muhitni muhofaza qilish, "doira iqtisodiyoti" modeli	Qayta ishlash darajasi yuqori, chiqindilarni kamaytirish	Aholi zich joylashgan hududlarda chiqindilarni boshqarish tizimi

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, "yashil" iqtisodiyot hududiy va makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan birga aholi farovonligini oshishiga, tabiiy muhit va aholi salomatligining yaxshilanishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo'ladiki, yashil iqtisodiyotni dastlabki rivojlantirish jarayonida ustuvor tarmoqlarga e'tibor qaratish va ularning imkoniyatlarini kengaytirgan holda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham yashillashtirib borish samarali sanaladi. O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish va uni samarali rivojlantirish uchun yetarli tabiiy-iqlimiy, ekologik, moliyaviy-iqtisodiy, texnologik imkoniyatlarga ega. Bu borada yetakchi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanilmoqda. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish keng qamrovli islohotlar, institutsional tayyorgarlik va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi. O'zbekiston mintaqalarida, ayniqsa janubiy viloyatlarda ushbu yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslashtirib, iqtisodiy va ekologik muvozanatga erishish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, barqaror mintaqaviy rivojlantirishning asosi bo'ladi [18].

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Aminov Fazlitdin Baxadirovich – i.f.n., prof. v.b. - Qarshi - davlat texnika universiteti / Аминов Фазлитдин Бахадирович – к.э.н., и.о.проф. Каршинский государственный технический университет / Aminov Fazlitdin Bakhadirovich – prof. acting - Karshi State Technical University**

► f.aminov1930@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-6221-5269>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 oktyabrdagi "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ – 4477-son qarori. // O'zbekiston Respublikasi Huquqiy axborot portal: www.lex.uz.
- [2]. Программа ООН по окружающей среде (UNEP).

Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: UNEP, 2011. – 631 p.

- [3]. Stern, N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 712 p.
- [4]. Кудинова Г.Э. Парадигма перехода регионов к «зеленой экономике» и устойчивому развитию. Экология. 3(26). 2023.
- [5]. Abduraxmonov X.M., Jalilov I.M. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 208 b.
- [6]. Jalilov I.M. The Role of Regional Factors in Transition to Green Economy in Uzbekistan // Central Asian Economic Review. – 2022. – №2. – P. 75–84.
- [7]. Vahobov A.V. Yashil iqtisodiyot. T. 2020.
- [8]. German Federal Ministry for Economic Affairs and Energy. Energiewende Policy Overview, 2022.
- [9]. Republic of Korea. Green Growth Strategy Report, 2013.
- [10]. Government of India. Hydrogen Energy Mission, 2021.
- [11]. Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030.
- [12]. OECD. Green Growth Indicators 2024. <https://www.oecd.org>
- [13]. BMU – German Federal Ministry for the Environment 2023. Energiewende and Renewable Energy. <https://www.bmu.de>
- [14]. GGGI – Global Green Growth Institute 2022. Green Growth Strategy for Korea. <https://gggi.org>
- [15]. China's 14th Five-Year Plan 2021–2025. Xitoy hukumatining ekologik sanoat siyosati haqidagi hujjatlar
- [16]. Danish Energy Agency 2023. Danish energy transition strategies. <https://ens.dk>
- [17]. Netherlands Environmental Assessment Agency. Circular Economy in the Netherlands. <https://www.pbl.nl>
- [18]. Aminov F.B. Mintaqa iqtisodiyotini "yashil" iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish xususiyatlari. "Innovatsion iqtisodiyot" el. Jurnal. 1-son, may. 2025. 89-91 b.